



SHE'RIY TARJIMADA ADEKVATLIK VA EKVIVALENTLIK MUAMMOLARI

Iskandar Sattibaev

Andijon shahar 1- son ixtisoslashgan maktab

Annotatsiya: Maqolada she'riy asarlarni tarjima qilishda yuzaga keluvchi asosiy muammo – adekvatlik va ekvivalentlik hodisalari haqida so'z boradi. Bu mavzuga oid soha mutaxassislarining qarashlari bilan bir qatorda ingliz tilidan o'zbekchaga qilingan she'riy tarjima tahlili vositasida mavzu chuqurroq ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: tarjima, she'riy tarjima, adekvatlik, ekvivalentlik, muvozanat, ingliz romantik she'riyati.

Аннотация: В статье рассматривается основная проблема, возникающая при переводе поэтических произведений, – явления адекватности и эквивалентности. Наряду с мнениями специалистов в данной области, тема детально анализируется посредством исследования поэтических переводов с английского языка на узбекский.

Ключевые слова: перевод, поэтический перевод, адекватность, эквивалентность, баланс, английская романтическая поэзия.

Annotation: The article discusses the main issue that arises in the translation of poetic works—the phenomena of adequacy and equivalence. Along with the views of specialists in this field, the topic is explored in greater depth through an analysis of poetic translations from English into Uzbek.

Keywords: translation, poetic translation, adequacy, equivalence, balance, English Romantic poetry.

She'riy asarlarni tarjima qilish murakkab vazifa bo'lib, aslyatdagi shoir lirikasini boshqa tilga tarjima qilishda quyidagicha savol yuzaga keladi: she'r, boshqa tilga tarjima qilinganda, asl tildagi matnga aynan mos kelishi kerakmi yoki mualliflik maqsadini yanada aniqroq ifoda etish uchun zarur bo'lgan chekinishlar qilishga ruxsat etiladimi? Shuningdek, she'riy matnni tarjima qilishda yana bir savol tug'iladi: tarjima qilingan matn tarjima tilining o'ziga xos xususiyatlariga mos kelishi kerakmi yoki aksincha, u o'quvchiga asl til madaniy rang-barangligini va o'ziga xosligini yetkazishi kerakmi?³⁹⁵

³⁹⁵ Минченко Е. Г., Никитинская Л. В. Способы достижения поэтической эквивалентности при переводе на примере трех переводов стихотворения "A man's a man for a' that" Роберта Бернса на русский. – Чебоксары. – С. 337

Albatta, muallif asliyatda biror asar yaratar ekan, xoh nazmiy bo‘lsin, xoh nasriy bo‘lsin, uning istiqbolda qaysi tillarga qay tarzda tarjima qilinish masalasiga alohida ahamiyat qaratmasligi tabiiy. Biroq, xorijiy tildagi asarni tarjima qilish orqali uni boshqa tildagi o‘quvchilarga yetkazishni maqsad qilgan tarjima albatta yuqoridagi savollarni o‘ziga berishi shart. She’riy tarjima jarayoni ushbu savollarga yechim topishni taqozo etar ekan, tarjimadagi muhim unsur bo‘lmish *muvozanat* (*adekvatlik*)ni alohida tahlil qilish zarurati vujudga keladi.

Sirojiddinov Sh. va Odilova G. larning “Словарь иностранных слов”, Barxudarov L. va Nayda Y. kabi manbalarga asoslangan holda ta’kidlashlaricha, *adekvat* so‘zi lotincha “*adaequatus*” so‘zidan olingan bo‘lib, “*o‘xshash*”, “*bir xil*”, “*teng*”, “*to‘la mos*”, “*bir-biriga aynan o‘xshash*” kabi ma’nolarni anglatadi. O‘zbek tarjimashunosligida bu atama “*muvozanat*” deb yuritiladi. Ayrim tarjimashunoslar fikricha, tarjima qilinayotgan til me’yoriga qat’iy amal qilgan holda asosiy mazmunni berish ekvivalent tarjima bo‘lib, bu maqbul holatdir. Yana olimlar *muvozanat*ni formal va dinamik *muvozanat* o‘laroq ikki turga ajratishadi. Formal *muvozanat*da taqdim etilayotgan axborot nasriy janrda bo‘lsa, nasr, she’riy janrda bo‘lsa, o‘sha janr qoidalariga to‘la muvofirlashtirilgan bo‘lmog‘i muhim. Dinamik ekvivalentlikda esa ma’no jihatdan umumiy yaqinlikka e’tibor qaratiladi.³⁹⁶

Bundan tashqari *muvozanat* tushunchasi *muvofiqlik* tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu tushuncha tarjimashunoslikda turli xil talqinlarga ega. Tarjima *muvozanati* odatda “tarjimaning o‘zaro til kommunikatsiyasining aniq aktiga qo‘yiladigan talab va sharoitlarga mosligini” anglatadi.³⁹⁷

Bu shuni anglatadiki, tarjimaga oid *muvozanat* yoki *adekvatlik* deganda tarjima uchun qo‘yilgan mezonlar, tamoyillar hamda qonun-qoidalariga amal qilgan holda she’riy asarni o‘g‘irishni tushunish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bespalova N. o‘zining “Особенности перевода поэтического текста с русского на английский язык” nomli maqolasida ushbu masalaga to‘xtalar ekan, Mashhur adib V. Vulf va tadqiqotchi A. Lipgartdan iqtibos keltirgan holda, tarjimani yo‘qotishsiz amalga oshirish imkonsiz ekanligi, biroq bu omil tarjima jarayoni uchun to‘siq bo‘lmasligi kerakligini ta’kidlaydi.³⁹⁸

Modomiki tarjima jarayonida yo‘qotishlarning ro‘y berishi muqarrar ekan, bunda *muvozanat*ni saqlagan holda tarjimani maksimal darajada asliyatga yaqinlashtirish lozim bo‘ladi. Tabiiyki *muvozanat* masalasida ko‘plab olim, ijodkor va mutaxassislar fikr bildirgan bo‘lib, ularning ba’zilar bilan tanishish o‘rinlidir.

Aniqroq aytadigan bo‘lsak, obrazga to‘la mos keluvchi, ya’ni **pragmatik jihatdan muvozanatli** tarjima, A matnning yo‘naltirilgan pragmatikasini B matnda tarjima tili vositalari

³⁹⁶ Sirojiddinov Sh. Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. – Toshkent, 2011. – B. 49

³⁹⁷ Жутовская Н.М., Поэтический перевод и проблема адекватности. – С. 342

³⁹⁸ Беспалова Н. В. Особенности перевода поэтического текста с русского на английский язык //Перевод в меняющемся мире: материалы Международной научно-практической конференции (Саранск, 19-20 марта 2015 г.). М.: Издательский центр «Азбуковник». – 2015. – С. 20

orqali **qayta tiklaydi**. U tarjima tilidagi yangi matnni shunchaki grammatik-semantik o‘zgarishlar bilan emas, balki **pragmatik qayta tiklash** orqali yaratadi. **Bunday qayta tiklash tarjimaning zarurati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib**, tarjima maqsadiga eng yaxshi xizmat qiladigan pragmatikaga intilish zarurdir.³⁹⁹

Ko‘rinib turibdiki, tarjimadagi muvozanatni ta‘minlash uchun asliyat tilidagi leksik, grammatik va boshqa omillarni tarjima tilida ifodalashdan tashqari muallifning asl maqsadi, uning matndan tashqaridagi o‘y va kechinmalarini ham e‘tiborga olish talab qilinar ekan.

Qolaversa, muvozanatli (adekvat) tarjima — bu tarjima jarayonida pragmatik maqsadlarni maksimal darajada bajarishga imkon beruvchi, tarjima tilidagi me‘yor va tildan foydalanishga oid urflarni buzmay, shu turdagi matnlar uchun janr va uslubiy talablarni inobatga oluvchi, hamda ijtimoiy jihatdan tan olingan tarjima me‘yoriga mos keladigan tarjima hisoblanadi. Norasmiy ma’noda "muvozanatli tarjima" deganda "yaxshi" tarjima tushuniladi, ya’ni bu tarjima kommunikatorlarning yoki tarjima sifatini baholovchilarning kutgan umidlarini oqlaydi.⁴⁰⁰

Komissarovning fikri talqin qilinganda, muvozanatli tarjima deb, asliyat tilida muallif nazarda tutgan ma’nolarni tarjima tilida o‘quvchiga yuqori darajada yetkazib berilishini tushunish mumkin bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, she’riy asarni tarjima qilishga oid bir necha yondashuvlar mavjudligini mulohaza qilish mumkin.

She’rlarni tarjima qilishning uchta usuli mavjud bo‘lib, birinchi usulda tarjimon o‘ziga tasodifan kelgan vaznlar va qofiyalarni, o‘zining lug‘at boyligini, ko‘pincha muallifga begona bo‘lgan so‘zlarni qo‘llaydi, o‘z ixtiyoriga ko‘ra asarni uzaytiradi yoki qisqartiradi; ochiq-oydin, bunday tarjimani faqat havaskorona deb atash mumkin. Ikkinchi usulda tarjimon deyarli shunday yo‘l tutadi, faqat o‘z xatti-harakatlariga nazariy asos keltiradi; u, agar tarjima qilinayotgan shoir rus tilida yozganida, xuddi shunday yozgan bo‘lardi, deb ishonadi. Bu usul XVIII asrda juda keng tarqalgan edi. XIX asrda bu usul rad etildi, lekin uning izlari hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Hozir ham ba’zilar bir vaznni boshqasiga almashtirish, qofiyadan voz kechish, yangi obrazlar qo‘shish kabilarni mumkin deb o‘ylashadi. Asliyatdagi asar ruhining saqlanib qolishi ushbu tarjima usullarining barchasini oqlashi kerak. Ammo, bu nomga loyiq bo‘lgan shoir tarjimada asosiy e‘tiborni shaklga qaratadi, chunki bu ruhni ifoda etishning yagona vositasi va shaklidir.⁴⁰¹

Tarjimadagi “ekvivalentlik” tushunchasi lingvistik tarjimaning markaziy tushunchalaridan biri hisoblanadi, chunki asliyat va tarjimaning mazmunan to‘la-to‘kis mos kelishi birinchi darajali zarurat ekanligi tufayli ko‘pchilik tadqiqotchilar ekvivalentlikni tarjimaning asosiy belgisi va sharti deb hisoblashadi. Ya’ni ekvivalentlik tarjimaga berilgan “bir tildagi matnni o‘zga tilda shu darajadagi matn bilan almashtirish” kabi ta’rifga mos keladi. Ushbu holda

³⁹⁹ Нойберт А. Прагматика и стилистика перевода. — Москва. 1978. — С. 196

⁴⁰⁰ Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты) — М., 1990. — С. 233

⁴⁰¹ Гумилев, Н. Антология английской поэзии [Текст] / Н. Гумилев. — М.: АРТ-ФЛЕКС, 2000. — С. 84

“ekvivalentlik” tushunchasi tarjimaning sifatlik, yuqori bahoga loyqlik xususiyatini anglatadi. Demak, ekvivalent tarjima “yaxshi”, “to‘g‘ri” tarjima sanalgan holda, ekvivalent bo‘lmagan tarjimani to‘g‘ri (adekvat, to‘laqonli) tarjima deb bo‘lmaydi. Shunday qilib, ekvivalent tarjima asliyat mazmunini o‘zga tilga vazifaviy-uslubiy jihatdan to‘la-to‘kis talqin etishdan iborat jarayondir. Buning ma‘nosi shuki, til belgilar yig‘indisidan iborat matn mazmuni tarjimada vazifaviy qayta yaratiladi.⁴⁰²

Bundan kelib chiqadiki, she‘riy asar tarjimasining to‘laqonli bo‘lishiga erishish uchun ekvivalentlikka erishish eng muhim omillardan biri hisoblanar ekan. Ushbularni mulohaza qilgan holda aytish mumkinki, bunday o‘ziga xos murakkablikka ega bo‘lgan bazifani ado etishning xassos yechim usullari nazarda tutilgan bo‘lmog‘i darkor. Shunday ekan, tarjimada adekvatlik hamda ekvivalentlikni yuzaga chiqarishga oid strategiyalarning shu o‘rindagi muhokamasi ayni muddao hisoblanadi.

Ekvivalentlikning birinchi turida she‘riy asar hamda uning tarjima tilidagi shakli o‘rtasida leksik/semantik hamda grammatik uyg‘unlik deyarli yo‘q yoki juda kam bo‘ladi va bir qarashda ikkala tildagi matn bir-biriga umuman aloqasi yo‘qday tuyuladi. Biroq, ularni o‘zaro mavzuiy mushtaraklik birlashtirib turadi.

Mashhur ingliz romantik shoiri Lord Bayron (Lord Byron) qalamiga mansub “*She walks in beauty*” “*Go‘zal borar*” she‘ridagi ilk to‘rt qator shunday:

Asliyatda:

*She walks in beauty, like the night
Of cloudless climes and starry skies;
And all that’s best of dark and bright
Meet in her aspect and her eyes;
Thus mellowed to that tender light
Which heaven to gaudy day denies.*

*One shade the more, one ray the less,
Had half impaired the nameless grace
Which waves in every raven tress,
Or softly lightens o’er her face;
Where thoughts serenely sweet express,
How pure, how dear their dwelling-place.*

*And on that cheek, and o’er that brow,
So soft, so calm, yet eloquent,
The smiles that win, the tints that glow,
But tell of days in goodness spent,*

⁴⁰² Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Fan, 2005. – B. 55.

*A mind at peace with all below,
A heart whose love is innocent!*⁴⁰³

Muvozanatning zikr etilgan shaklini she‘rning asliyatdagi va o‘zbekcha tarjimadagi ostiga chizilgan satrlarda kuzatish mumkin.

O‘zbekcha tarjima:

*Go‘zallik ichra u borar tun kabi
Bulutsiz, yulduzli osmonga monand.
Oh, uning qomati hamda ko‘zlari!
Qaro tun va shu‘la bo‘lgandir payvand.*

*Ushbu yorug‘likdan erigan osmon
Uni ravshan kunga bermas, qilar rashk.
Bir soya ziyoda, bir nurda nuqson,
Nomsiz nafosat-chun bo‘lgaydir ofat.*

*Zulmat, nur bahslashar kokillarida;
Yuzida moh qalqar tegingan zamon.
Hayollar chiroyin etar oshkora,
Pokiza va aziz oy qalqqan makon.*

*Qoshlarin ustida, yanoqlarida
Mayin va hotirjam, lekin so‘zamol
O‘tgan kunlaridan hikoya aytar
Otashli tabassum, yaraqlagan ol.*

*Dunyoda har ne-la murosali qalb,
Qalb-ki muhabbati ma’sum va zilol.*⁴⁰⁴

Avvalo shuni ta’kidlash lozimki, asliyatda olti qatorli sestetlardan tashkil topgan she‘r o‘zbek tiliga to‘rt qator tarzida tarjima qilingan. Asliyatdagi ilk sestetning 4-5- qatorlari o‘zbek tiliga tarjima qilinganda qatorlar o‘rni almashtirilgan:

*“Thus mellowed to that tender light
Which heaven to gaudy day denies.”*

*“Ushbu yorug‘likdan erigan osmon
Uni ravshan kunga bermas, qilar rashk.”*

⁴⁰³ <https://poetryfoundation.org/poems/43844/she-walks-in-beauty>

⁴⁰⁴ Tarjima bizga tegishli.

Asliyatda, she‘ning quyidagi ikki qatorida hayollarning “shirin”ligi haqida gap ketadi. Qolaversa, she‘ning umumiy kontekstridan ushbu hayollar go‘zalning chehrasida aks etishini tushunib olish mumkin. Quyidagi ikkinchi qatorda go‘zal chehrasining naqadar pokiza va aziz ekanligi haqida so‘z boradi.

Where thoughts serenely sweet express,

How pure, how dear their dwelling-place.

O‘zbekcha tarjimadagi

Hayollar chiroyin etar oshkora,

Pokiza va aziz oy qalqqan makon.

satrlarida hayollar shirin emas, “shiroyli” deb talqin qilingan. Qolaversa, go‘zal chehrasi “yuz” yoki “oraz” kabi so‘zlar bilan emas, balki “oy qalqqan makon” o‘laroq talqin qilingan. Bu misolda ham lisoniy yaqinlik kuzatilmaslik barobarida sher‘ning umumiy mavzusi atrofidagi uyg‘unlikni kuzatish mushkul emas.

And on that cheek, and o’er that brow,

So soft, so calm, yet eloquent,

The smiles that win, the tints that glow,

But tell of days in goodness spent,

Asliyatdagi ushbu to‘rtlikning birinchi qatori o‘zbekchaga o‘zgartirilgan tartib bilan tarjima qilingan. Qo‘shimcha tarzda to‘rtlikning uchinchi va to‘rtinchi qatorlari o‘zbek tiliga teskari tarzda tarjima qilingan.

Qoshlarin ustida, yanoqlarida

Mayin va hotirjam, lekin so‘zamol

O‘tgan kunlaridan hikoya aytar

Otashli tabassum, yaraqlagan ol.

Bundan tashqari, inglizchada go‘zallikning ta‘rifi sifatida sanab o‘tilayotgan xususiyat o‘zbek tilida hayrat to‘la xitob shaklida berilgan. Leksik nuqtai nazardan olganda, o‘zbekcha tarjimada ishlatilgan “qomat, qaro tun, shu‘la, payvand” so‘zlari inglizcha asliyatda muqobiliga ega emas. Shunday bo‘lsa-da, ekvivalentlikning bu shaklida asosiy vazifa go‘zalning husnini ta‘riflash ekanligi sababli, ularni yagona she‘riy mavzuga oid hisoblash mumkin.

Ko‘rinib turibdiki, tarjimadagi muvozanat (adekvatlik) yoki muvofiqlik (ekvivalentlik) pirovardda matndagi mazmunga borib qadaladi. Tarjimon, tarjima tilida qanday leksik, grammatik, fonetik vositalarni ishga solmasin, oxir oqibatta uning eng oliy maqsadi asliyatdagi matnning mazmunini tarjima tilida yetkazib berishda iloji boricha muvozanat va muvofiqlik tamiyollariga rioya qilishi lozim bo‘ladi.

She‘riy asar tarjimasida muvozanatni ta‘minlash uchun tarjimadagi matn asliyatga nisbatan muayyan o‘zgarishlarga duchor bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki, tarjima, ayniqsa she‘riy tarjima murakkablik nuqtai nazaridan o‘ziga xos jarayon bo‘lib, adekvatlik va ekvivalentlik masalalari unda alohida

ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ekvivalentlik va adekvatlikka to‘la erishish imkonsiz ekanligi sohaning yetakchi mutaxassislari tomonidan ta’kidlangan. Shunday ekan, bugungi kunda sifatli she’riy tarjimani amalga oshirish maqsad qilgan tarjimon oldidagi asosiy vazifa ushbularni e’tiborga olgan holda muvozanatning eng yuqori darajasiga erishishga intilishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Беспалова Н. В. Особенности перевода поэтического текста с русского на английский язык //Перевод в меняющемся мире: материалы Международной научно-практической конференции (Саранск, 19-20 марта 2015 г.). М.: Издательский центр «Азбуковник». – 2015. – С. 20.
2. Гумилев Н. Антология английской поэзии [Текст] / Н. Гумилев. — М.: АРТ-ФЛЕКС, 2000. — С. 84.
3. Жутовская Н. М. Поэтический перевод и проблема адекватности. – С. 342.
4. Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты) – М., 1990. – С. 233.
5. Минченко Е. Г., Никитинская Л. В. Способы достижения поэтической эквивалентности при переводе на примере трех переводов стихотворения “A man’s a man for a’ that” Роберта Бернса на русский. – Чебоксары. – С. 337.
6. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Fan, 2005. – B. 55.
7. Нойберт А. Прагматика и стилистика перевода. – Москва, 1978. – С. 196.
8. Sirojiddinov Sh., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. – Toshkent, 2011. – B. 49.
9. <https://poetryfoundation.org/poems/43844/she-walks-in-beauty>